

NIKOLAY ALEKSANDROVICH MAYEV VA UNING SURXON VOHASI TARIXINI O'RGANISHDAGI O'RNI

Begaliyeva Mexriniso Olimnazarovna

**Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti,
Tarix va uni o'qitish metodikasi yo'nalishi kafedrası o'qituvchisi.**

Elmurodov Nodirbek Nurbek o'g'li

**Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti,
Tarix va uni o'qitish metodikasi yo'nalishi talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10802717>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada XIX asrning 70-yillari Surxon vohasida ilmiy faoliyat olib borgan Nikolay Aleksandrovich Mayev ekspeditsiyasi haqida bayon etiladi. Bu ekspeditsiya Surxon vohasining Buxoro amirligiga tarkibida qanchalik ahamiyatga ega ekanligini va Hisor, Darband, Ko'lob bekligini ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: K.P.Kaufman, N.A.Mayev, Boysun, Darband, Hisor.

Nikolay Aleksandrovich Mayev 1835-yil 21-fevral kuni Sankt-Peterburg shahrida tug'ilgan. U rus yozuvchisi, jurnalist, general-mayor O'rta Osiyo kompaniyalarida qatnashgan. 1875-yilda Turkiston general gubernatori K.P.Kaufmanning buyrug'iga ko'ra Hisor tizma tog'laridan to Amudaryogacha va Ko'lob bekligigacha bo'lgan hududni chuqur o'rganish maqsadida ekspeditsiya tashkil etiladi. Shu sababli K.P.Kaufman 1875-yil 17-sentabrda Buxoro amiriga xat bilan murojaat etib, ekspeditsiya a'zolarini Sharqiy Buxoro yerlariga kirishga ruxsat berishni va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni so'raydi. K.P.Kaufman ekspeditsiyaga rahbarlik qilishni "Turkiston xabarları" gazetasining muharriri N.A.Mayevga topshiradi. N.A.Mayevning asosiy kasbi harbiy soha bo'lishiga qaramasdan, u arxeologiya, tarix va etnografiya fanlariga juda ham qiziqqan[1].

Peterburgda nashr qilingan "Askarlarga o'qish uchun" nomli jurnalda uning "Moskva tarixiy obidalari", "Qisqacha rus tarixi", "Sevastopol va uning jasur himoyachilari", "Borodino jangi", "Podsho Buyuk Pyotr", "Apostol knyaz Vladimir" singari ilmiy maqolalari chop etilgan edi. Shuningdek, N.A.Mayev Rossiya Xalq ta'limi vazirligining jurnalli bilan ilmiy hamkorlik o'rnatgan bo'lib, Peterburgdan Toshkentga kelgach, tarixiy va arxeologik mavzular bo'yicha ko'plab ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ilmiy maqolalarini yuborib turgan. "Dengiz xabarları", "Askarlarga o'qish uchun" jurnallariga rahbarlik qilgan general-mayor A.Geyrot N.A.Mayevni redaksiyaning eng serg'ayrat va iqtidorli muxbirlaridan biri sifatida ta'riflagan edi. N.A.Mayev "Turkiston xabarları" nomli gazetasi tashkil etishning loyihasini tuzish chog'ida Turkiston o'lkasining tarixi, geografiyasi, etnografiyasi va statistikasiga doir maxsus rukn ochishni taklif etgan edi. Hattoki N.A.Mayev Fon Kaufman tashabbusi bilan nashrdan chiqarilgan "Туркестанские ведомости" gazetasiga 1869-yildan 1892-yilgacha muharrirlik qilgan. Rossiya Xalq ta'limi vazirligi jurnalining boshlig'i tomonidan N.A.Mayev haqida ma'lumot berishni so'rab murojaat etgan. Turkiston general-gubernatoriga yozgan javobida: "...N.A.Mayev keyingi paytlarda jurnalning eng iqtidorli hodimlaridan biri bo'lib, sof rus tilida chiroyli va ma'noli maqolalar yoza oladi", deb ta'riflagan edi. N.A.Mayev haqiqatan ham dunyo qarashi keng va bilimdon kishi bo'lganligini uning 1875-yil 15-fevralda rus diplomatiyasining yirik amaldorlaridan biri A.A.Vaynbergga yozgan xatidan ham bilib olsa bo'ladi. N.A.Mayev ekspeditsiyasi Surxondaryo vohasi hududiga kirib kelar ekan, hozirgi kun kitobxon uchun nihoyatda qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Jumladan, Darband, Poshxurt, Munchoq, Egarchi, Laylagon, Serob (Sayrob) qishloqlari haqida to'lqinlanib hikoya qiladi. Darbandda yashovchi

tojik aholisi umuman o'zbek tiliga tushunmaydi va u bu borada O'rta Osiyoda yagona deb hisoblasa, Sayrobning chinoridan hayratga tushib, uni "Bobochinor" deb ataydi. Mayevning Sherobod bilan bog'liq ma'lumotlari diqqatga sazovordir. Uning ta'rificha, Sherobod shahri Sherobod vohasining ma'muriy va savdo markazidir. Sherobod bozoriga Buxoro va Balxning savdogarlari kelishadi. Bu yerdan Buxoro va Qarshiga jo'natiladigan tuyalar hamda paxta toylari sotib olinadi, deb ma'lumot beradi. Ayniqsa, Sherobod qal'asi haqida yozar ekan, uni uch qator devor bilan o'rab olingan tepalik ustida qurilganligini ta'kidlaydi. Pastda esa qal'adan turib qaraganda bekning mexmonxonasi va chiroyli, ozoda ayvoni xuddi ajoyib ko'rinishini yozadi. Sherobod bekining qal'a pastidagi mehmonxonasi haqidagi ma'lumot Mirza Salimbekning "Tarixi Salimi" asarida ham uchraydi. Boysun tog'larining manzarasi, boysunlik qo'ng'irotlar, Boysundan Denovgacha boradigan yo'llar haqidagi ma'lumotlar kitobxonda katta qiziqish o'yg'otadi. [1].

Surxon daryosini Surxon vohasining "qon tomiri" deb ataydi. Biz Mayevning ma'lumotlaridan, XIX asr oxirlarida "Surxon daryosining qirg'og'i tekis bo'lib, unda jiyda, yantoq, sho'ra, qamishlar shu qadar qalin bo'lib o'sadiki, oqibatda qalin changalzor hosil bo'lib, unda yo'lbars, yovvoyi cho'chqa va boshqa hayvonlar" gavjum yashaganligini bilib olamiz. Boysun butun Buxoro xonligida eng salqin shahar hisoblansada, amir nima uchun shaharni o'zining yozgi rezidensiyasi aylantirmagani aytib o'tadi. Boysun o'zining salqin havosi bilan ajralib turishi ajablanarli emas edi. Chunki u dengiz sathidan 3410 funt balandlikda joylashgan (3356 funt balandlikka ega Fayzobod dovoni balandligi singari). Bundan tashqari, qorli tog'larning darasidan esuvchi doimiy shamollar havoni sovutib turadi. Boysun haqiqatan o'zbeklarning shahri bo'lgani uchun tog'dan esayotgan shamollarning salqinligiga ko'nikmasdan yozda chorbog'laridan tog' atrofida joylashgan balandliklarga, o'tovlarga ko'chib chiqadilar. Bu o'tovlar odatda ikkita, uchta, ba'zida beshta va o'ntadan qilib, jarlik yoki yopiq soylar atrofida joylashgan edi.

Voha hayotida muhim ahamiyat kasb etgan Amudaryo, Surxondaryo, To'palang va boshqa suv manbalari haqida "Hisor ekspeditsiyasi" ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufmannning bevosita qo'llab-quvvatlashi bilan tashkil etilgan "Hisor ekspeditsiyasi" ning boshlanishiga N.A.Mayev, kapitan Shvarts, praporshik Vishnevskiy kabi mutaxassislar jalb qilinib, ularga Hisorgacha bo'lgan yo'llarning tarixiy topografiyasini yaratish vazifasi topshirilishi haqida o'sha davr matbuot sahifalaridagi maqolalarda bayon etilgan[2].

Ekspeditsiya a'zolari Sariosiyo va Sarijo'yga kelib, Surxonning bosh irmog'i bo'lgan To'palong daryosini ko'rganligi, hattoki, bu daryo va irmoqlar aholi yashaydigan qishloq yoki hudud nomiga ham qo'yilgan bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumotni berib o'tadi[3].

Boysundan Darbandga boradigan yo'l butun Darband tog'larini kesib o'tadi va tepaga ko'tarilib uchta baland va ko'tarilishi qiyin bo'lgan Sagirtma, Boy Xidir o'ra va nihoyat uncha katta bo'lmagan soylikda joylashgan tojiklar yashaydigan qishloq yonidagi Yolg'iz tog' dovonlaridan o'tadi. Uchala dovon ham ko'tarilishi qiyin bo'lgan dovonlar hisoblanadi. Toshli va aylana yo'ldan iborat Yolg'iz tog' dovonini haqiqiy dovon desa bo'ladi. Sagirtma va Boy Xidir o'raga asta-sekin ko'tarilib borish mumkin bo'lgani uchun ularni dovon emas, balandlik deb baholash mumkin deb ta'riflaydi.

Yolg'iz tog' dovonidan Boysun va Darband atrofidagi tog' tizmalaridan ketgan barcha asosiy yo'nalishlarni nihoyatda aniq ko'rish mumkin deb ta'kidlaydi muallif[4].

Yana shunday ma'lumot ham keltiradi. Uzoqdan ko'rinib turgan Poshxurt va uning chap tomonida parallel ravishda joylashgan Dahrokent tog'lari Boysun tizma tog'larining davomi ekanligi yaqqol ko'rinadi. Poshxurt singari Boysun tog'lari ham bu yerda bir necha alohida baland qiyaliklarga bo'linib ketib, Bo'ritaxta (Darband tog'lari)ning g'arbiy tomondagi qoyalari bilan borib tutashib ketgan jarlik, soylik va aylana yo'llardan iborat labirint tashkil etadi. Bu yerda bir qarashdayoq ikkita alohida balandlik kesishib o'tganini ilg'ab olish mumkin. Tog' tizmasining chekkasida joylashgan jarliklardan birida qo'shni tojik qishloqlarga nisbatan ancha to'q bo'lgan Darband qishlog'i joylashgan. Darband so'zi yopiq darvoza ma'nosini berganini aytib o'tadi. N.A.Mayev Dahqorakent dovonining Serobga (Sayrob) qadar yo'lida Buzg'oloxona bulog'i mavjudligi, Sherobod shahri Sherobod vohasining ma'muriy va qisman butun Sherobod vohasining savdo markazi ekanligi, 1868 yilga qadar Amudaryoning tekis qirg'oqlari bo'ylab qo'ng'irotlar joylashganligi haqida yozadi.

Surxon vohasi yerlariga shunchalik mohirona ishlov berilganki, Shodiboydan Denovga qadar biron-bir joyda bir qarich ham unumsiz yoki bo'sh yotgan yerni ko'rmadim deya aytadi. Bu Hisor o'lkasining eng yaxshi yerlaridir. Xonlik poytaxtiga g'alla va shoyi, qo'ylarning podasini olib ketishadi. Faqat Sheroboddan paxta karvonlari Buxoroga jo'natadi. Surxon vodiysidagi asosiy ekin turlari sholi va zig'irpoya bo'lib hisoblanadi. Surxon vodiysi aholi bilan qanchalik gavjumligini Shodiboydan Denovgacha yo'limizda uchragan quyidagi 13 ta qishlodan, ya'ni: Mirshodi (shu nomdagi ikkinchi qishloq), Og'abuloq, Jindibuloq, Buzoynak, Baton, Kunpayxona, Xatirchi, Ammaksoy, Chakcha, Qarasakli, Qalluqli (yozda Denov begi dam oladigan katta qishloq), Ipakxo'ja va Qushsoatlardan bilib olsa bo'ladi. Ammo faqat yo'lida uchragan qishloqlargina tilga olgan. Vaholanki, bizga ma'lum bo'lgan tog'larning chap va Surxon daryosiga yaqin o'ng tomonidan yam-yashil tog'larga burkangan yana bir qancha tog' oldi va daryo bo'ylarida qishloqlar bor edi, Surxon vohasidagi dehqonchilikning yuksak darajadagi madaniyati eng avvalo, sug'orish uchun suvning mo'l-ko'lligi hamda ko'plab buloqlar va irmoqlarning atrofini o'rab olgan tog'lardan Surxon vohasi yerlariga oqib kelishi bilan izohlanadi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, Surxon vodiysining hamma joyida ham suvni mo'l deb bo'lmaydi. Vohaning shimoliy qismidan bir qancha irmoqlar bilan kesib o'tadi va suvini Surxon daryosiga quyadi deb ta'kilaydi.

Hisor o'lkasi bilan Ko'lob o'rtasidagi aloqalarni ozgina bo'lsada qulayroq qilish maqsadida Hisor noibi Yoqub qushbegi Vaxsh oqimi bo'ylab yangi yo'l yotqizadi. Bu yo'l ko'prikdan Turtkaul qishlog'igacha bo'lgan 1 verst masofada qurilgan. O'tishi qiyin bo'lgan va tor so'qmoq bo'lgan joylarda ushlab o'tish uchun xodalar urilgan bo'lib, yo'lakda tuproq aralash shag'al to'kib chiqilgan. Kofirnixon daryosi ustida qurilgan ko'prik bilan ushbu yo'l qurilishi Yoqubbekka ishonib topshirilgani ulkada uning naqadar o'rni borligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham, Yoqubbek qushbegi favqulodda aqli va harakatchan qariya bo'lgan. Dara chetidagi qoyalardan sinib tushgan tosh bo'laklari Vaxsh oqimi bo'ylab daryo qirg'oqlarida yotganligini ta'kidlaydi muallif. Shuningdek muallif tosh bo'laklarining to'planib qolishi oddiy holat bo'lganligini, ulkan tosh bo'lagi yerga tushib ketganligini ta'kidlaydi. Pulisangin ko'prigi oldida zarba shu qadar kuchli bo'lganki, bojxona vazifasini o'tagan ko'prik ustidagi kichkinagina uycha daryoga tushib ketishiga ozgina qolgan. Biz yaqin borgan Vaxsh daryosi bo'yidagi yerlar ko'pchilikka yaxshi ma'lum bo'lmagani uchun sharq tarixchilari va sayyohlarining asarlaridagi ma'lumotlarni keltirish foydadan holi bo'lmaydi deb o'ylaymiz. Professor Lerxning aytishiga qaraganda, "Tarixi Raximxon" da Vaxsh daryosi faqat shu nom bilan ma'lum. Ushbu manbada

aytilishicha, Vaxsh bilan Amu o'rtasida Qo'rg'ontepa qal'asi bor. Vaxsh bu yerda Amuga juda yaqinlashib kelganligini yozib qoldirgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Surxon vohasida ilmiy faoliyat olib borgan Nikolay Aleksandrovich Mayev ayniqsa, O'zbekiston tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Surxon vohasining XIX asrning ikkinchi yarmidagi tarixiy-xronologik izchillik, hududiy-muammoviy yondashuv asosida ochib berishi vatanimiz tarixini yangi ma'lumotlar bilan boyitish imkonini beradi. O'z asarlarida Buxoro amirligi ayniqsa sharqiy Buxoro bekliklari shahar va qishloqlari, karvon yo'llari, moddiy madaniyat yodgorliklari, aholining turmushi, urf-odatlar va an'analari, mahalliy boshqaruv tizimi, hunarmandlik, savdo, geografik, tabiiy-tarixiy, arxeologiya va etnografiyasiga oid ma'lumotlari muhim ahamiyatga ega.

References:

1. Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. – Санкт-Петербург, 1879. С. 180. Вухоро хонлиги ocherklari. Rus tilidan Ismoil Botirov tarjiması.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. –
2. Маев Н.А. Гиссарской экспедиции // Туркестанский сборник. 1875 г. Т. 118. – С. 245.
3. Маев Н.А. Тупаланг // Туркестанские ведомости, 1876 г., № 6.
4. Hissar and Kulab. By N.Mayef // The geographical magazine. 1876. December. №1 // Туркестанский сборник. Т.193. – С. 329–330.